

XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA VALYUTA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USULLARI

*Toshkent moliya instituti 1-kurs magistranti
Mannonov Nabiddin Najmiddin o'g'li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada valyuta risklarining mavjudligi va valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalar amalga oshirilishi, transmilliy korxonalarini barpo etish orqali, bank operatsiyalari bozori baynalmilallashuvi, shu jumladan, ular faoliyatini diversifikatsiyalash hamda risklar bo'yicha menejer risklar darajasini aniqlash, ularni maksimal darajada kamaytirish va sug'urtalash masalalari, zamonaviy jahon xo'jaligidagi munosabatlar bozor ishtirokchilaridan konyunktura o'zgarishiga tezda moslashishni, moliyaviy natijalarni uzoq muddatga bashoratlashni, samarali strategiya ishlab chiqish va uni amalga oshirish borasida atroflicha izlanishlar olib borilgan, xususan, kerakli taklif va xulosalar berilgan.

Annotation. In this article, the existence of foreign exchange risks and the implementation of foreign exchange transactions in foreign exchange markets, the internationalization of the market of banking operations through the establishment of transnational enterprises, including the diversification of their activities, and the issues of determining the level of risks by the risk manager, minimizing them and insurance, relations in the modern world economy, market participants have been thoroughly researched on how to quickly adapt to changes in the economic situation, predict financial results in the long term, develop an effective strategy and implement it, in particular, the necessary suggestions and conclusions have been given.

Kalit so'zlar. Fyuchers, forward, tranzasiya, valyuta chayqovi, potensial valuta yo'qotishlar, tovar savdosi, xorijiy kapital.

Key words. Futures, forwards, transactions, currency speculation, potential currency losses, commodity trading, foreign capital.

Kirish.

Valyuta risklarini samarali boshqarish xalqaro moliya munosabatlari ishtirokchilari faoliyatida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jahondagi yirik korporatsiyalar faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy risklarning barcha turlarini o'rganib borish hamda ularni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishda alohida risklar bo'yicha menejerlik faoliyati yo'lga qo'yilgan. Risklar bo'yicha menejer moliyaviy risklarni oldini olish yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni faoliyatning turli sohalari uchun mas'ul bo'lgan boshqa mutahassislarga taqdim etib boradi. Shuningdek, risklar bo'yicha menejer risklar darajasini aniqlash, ularni maksimal darajada kamaytirish va sug'urtalash masalalari bilan shug'ullanadi. Zamonaviy jahon xo'jaligidagi munosabatlar bozor ishtirokchilaridan konyunktura

o'zgarishiga tezda moslashishni, moliyaviy natijalarni uzoq muddatga bashoratlashni, samarali strategiya ishlab chiqish va uni amalga oshirishni hamda barqaror faoliyat yuritishni talab etadi.

Har qanday mamlakatda valyuta muomalasining haddan ziyod ma'muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun imtiyoz hamda preferentsiyalarning kam samarali tizimini asossiz ravishda shakllantirishga yo'l ochadi. Biznes yuritishda teng bo'lmagan shart-sharoitlar vujudga kelishi esa raqobatning bozor tamoyillari buzilishiga olib keladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tovarlar va xizmatlar eksportini oshirish, umuman, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida to'sqinlik qiluvchi omilga aylanadi. Bunday holat respublikamiz uchun ham yot emas edi. Lekin hozirgi kunda valyuta siyosati hamda tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni alohida e'tirof etish joiz. Aytish kerakki, davlatimiz rahbarining 2017 yil 2 sentyabrdagi — "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"¹gi farmoni bunda dasturilamal bo'lib xizmat qilayapti.

Bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq jarayonlarni boshqarishda, milliy valyutaning xalqaro mavqei belgilashda va mamlakatning joriy hamda kelajakdagi iqtisodiy munosabatlari tizimida valyuta siyosati muhim rol o'ynaydi. U «ko'p qirrali bashorat» (iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlash, ishsizlikning oldini olish va inflyatsiyani jilovlash, to'lov balansining aktivligini saqlab turish) muhiti hisoblangan iqtisodiy siyosatning asosini egallashda, yetakchi o'rin egallaydi.²

Valyuta siyosatining shakli va o'ri, mamlakatning valyuta-iqtisodiy holati, jahon xo'jaligining evolyutsiyasi, jahon maydonidagi o'ri bilan aniqlanadi. Tarixiy rivojlanishiga nazar soladigan bo'lsak, birinchi navbatda, har qanday valyuta siyosatining asosiy maqsadlari quyidagi shakllanib kelmoqda: valyutaviy inqirozni bartaraf etish va valyuta qiymatining ta'minlanganligi, valyutaviy cheklashlar, valyutaning erkin almashinuvi, valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish va boshqalar. Mamlakatlar-aro munosabatlarda valyuta siyosatining asosiy jihati: hamkorlik va kelishuv, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlarni ichki siyosatiga moliyaviy va maslahat xizmatlari orqali ko'mak berish.

Shunindek, Bozor iqtisodiyoti korxonalar, jamoalar, tashkilotlari, kooperativlar, banklar va fuqarolarga tashqi iqtisodiy faoliyatni va valyuta xo'jaligini mustaqil tarzda amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Xech kimga sir emaski, bozor iqtisodiyoti risk bilan bog'liq. U bilan banklar ham, tadbirkorlar ham, aholi ham tuktashadi. Biroq, ko'pgina hollarda riskni kamaytirish, oldini olish, va xattoki undan kochish mumkin. Moliyaviy risklarni kamaytirishda banklar muhim o'rin tutadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2017 yil — Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5177-sonli Farmoni. Ushbu Farmon — Xalq so'zida gazetasi 2017-yil 5-sentabrdagi 176 (6870)-sonida e'lon qilindi.

² Mamatqulov X.M. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Ma'ruzalar kursi. Samarqand, 2006.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning qayta qurilishi, xalqaro aloqalarning kengayishi bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini muvofiq ravishda o'zgartirishlarini takozo etadi. Ularning xo'jalik faoliyatlariga valyuta kurslarining tebranishi sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar.

Xalqaro moliya munosabatlarini rivojlantirishda hamda bank tizimini erkinlashtirish, alohida olingan korporativ banklar faoliyatini universallashtirish sharoitida, alohida olingan bank risklarini hisoblash va baholash muammosi amaliy ahamiyatga egadir. Shu sababli, tijorat banklari faoliyatida doimo uchrab turadigan valyuta risklari xususida tuxtab o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Valyuta risklarining mavjudligi - valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalar amalga oshirilishi, transmilliy korxonalarini barpo etish orqali, bank operatsiyalari bozori baynalmilallashuvi, shu jumladan, ular faoliyatini diversifikatsiyalash bilan bog'liq.

Shu sababdan, riskka bir qator omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadilar. Bularga misol qilib, geografik, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik va boshqa omillarni ko'rsatish mumkin.

Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayirboshlash kurslari o'zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalari amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi. Valyuta risklari yuzaga kelishining asosiy sababi - valyuta kurslari o'zgarishi hisoblanadi. Bunday o'zgarishlar hamma shaxslarga: ishbilarmon firmalar va davlat tuzilmalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina hollarda, ularning faoliyati eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq va shu sababli, kreditorlar va qarz oluvchilar, investorlar va chayqovchilar, xo'jalik sub'ektlari o'z bizneslarini milliy valyutaga nisbatan xorijiy valyutalarda amalga oshirishni ma'kul ko'radilar.³

Valyuta riskiga - tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, hamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda, milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyutani kursi o'zgarishi bilan bog'liq valyuta yo'qotishlari xavfi kiritiladi.

Valyuta riskining hajmi, valyutaning sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan bog'liq, shu sababli u bitim imzolangan va to'lovni amalga oshirish muddati o'rtasidagi vaqt oralig'ining farqiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Eksport qiluvchi (sotuvchi) uchun kursdan yo'qotishlar to'lov valyutasi kursini tushishigacha bo'lgan muddatda bitim imzolab qo'ygan bo'lsa yuzaga keladi, chunki olingan tushum mablag'lariga eksport qiluvchi kamroq milliy pul mablag'larni olishi mumkin. Import qiluvchi (xaridor) esa, baho valyuta kursi oshishidan zarar ko'rishi


³ Brunnermeier, M. K. (2008). Bubbles, in S. N. Durlauf and L. E. Blume, eds. The New Palgrave Dictionary of Economics, 2nd ed., Basingstoke: Palgrave Macmillan.

mumkin, chunki xarid qilib olishi uchun, endi ko‘proq milliy valyuta mablag‘larini xarajat qilish lozim bo‘ladi.

Xalqaro amaliyotda yuzaga keladigan har qanday risk eksport qiluvchi (sotuvchi)ning buyniga tushadi.

Milliy moliya bozorlarida risklarni ma‘lum bir sezilarli miqdorda taxmin qilish mumkin. Hududiy va xalqaro moliya bozorlarida esa, bundan farqli o‘laroq, risk darajalarini taxminlashtirish sezilarli darajada mushkul hisoblanadi.

Valyuta riskini uch turga bo‘lish mumkin:



1-rasm. Valyuta riski turlari

1. Pul o‘tkazishda yuzaga keladigan risk - xorijiy valyutada ifodalangan (misol uchun, xorijdagi filialning hisobotlari) flrma yoki bankning moliyaviy hisobotlari natijalarini milliy valyutaga o‘tkazish (misol uchun, flrmaning moliyaviy hisobotlarini jamlash vaqtida);

2. Tranzaksiya (bitimlar) riski - to‘lovni kelajakdagi bir sanada amalga oshirishda, milliy valyuta qiymatining yoki bitim daromadliligining noaniqligini aks ettiradi. Bunga misol qilib, import qiluvchiga kredit taqdim etilgan holda, import qiluvchi valyutasida tovarlarni eksport qilishi uchun xizmat qiladi;

3. Iqtisodiy risk - kelajakda valyuta ayirboshlash kurslarining o‘zgarishi natijasida, xorijiy valyutada ifodalangan firma aktiv va majburiyatlarining milliy valyutadagi qiymatining o‘zgarishidir. Bunga misol qilib, flrmaning xorijiy bo‘linma va filiallarining aktivi va majburiyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Pul o‘tkazishda yuzaga keladigan risk - bu hisob-kitob amaliyotida yuzaga kelib, xorijiy valyutada ifodalangan firma yoki bankning aktiv va majburiyatlarining milliy valyutaga o‘tkazishda, davriy ravishda ayirboshlash kursining o‘zgarib turishidir. Agarda, milliy valyutada ifodalangan xorijiy valyuta qimmatlashsa, u holda firma yoki

bankning xorijiy valyutadagi aktivlari, majburiyatlari va mol-mulki ham, milliy valyutaga nisbatan qiymat jihatidan oshadi. Xorijiy valyuta ayirboshlash kursining qadrsizlanishi yuqoridagi holatning aksi bo‘lib chiqadi.

Tranzaktsiya (bitimlar) riski to‘lashga yo‘naltirilgan yoki to‘lovga qabul qilingan xorijiy valyutada ifodalangan hisob bilan bog‘liq moliyaviy riskdir. Ayirboshlash kursi tranzaktsion ko‘rinishga tegishli ravishda xejerlash (sug‘urtalash) orqali barham berilmagunga qadar, firmaning daromadiga, milliy valyutada to‘lovlarni qabul qilish va to‘lash o‘zgarishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiladi. Barqaror siyosatni amalga oshirish maqsadida, tijorat banklari doimiy ravishda o‘z mijozlaridan ayirboshlash kursining kutilmagan o‘zgarishlaridan yuzaga keladigan zararlarning oldini olishi uchun, ularni xejerlashni tavsiya qiladilar.

Valyuta kurslarini o‘zgarishlarini aniqroq prognozlashtirish, valyuta risklarini sug‘urtalash (xedjirlash)dan foydalanish zarurdir. Valyuta riski sug‘urtasi deganda, uni bartaraf etish bilan bog‘liq choralar tushuniladi. Bunday choralarga, tashqi iqtisodiy operatsiyalar natijalarini, xorijiy valyutalar kursining o‘zgarishiga bog‘liqligini yo‘qotishga qaratilgan choralar kiradi. Bir qator firmalar valyuta muvozanatsizligini zamonaviy xalqaro savdo muammolaridan biri deb hisoblab, hech qachon valyuta risklarini sug‘urta qilmaydilar. Oqibatda, bunday firmalar katta zararlar ko‘rgani holda ularning soni hozirgi kunda ancha kamaygan.

Valyuta chayqovi bo‘yicha real zararlarning paydo bo‘lishi, tashqi iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisining har bir valuta operatsiyasiga balansning boshqa tarafida operatsiyalarning qarama-qarshi turishi bilan izohlanadi. Masalan, eksport shartnomalaridan va berilgan kreditlardan keladigan tushumlar hajmining rejalashtirilgan natijalarga nisbatan kamayishi, olingan summa joriy xarajatlarni yoki jalb qilingan bank mablag‘lari qiymatini qoplamasligiga olib kelishi mumkin.

Valyuta riskining sug‘urtasi va sug‘urtasiz shakli bilan bo‘ladigan iqtisodiy operatsiyalarning samaradorligi operatsiyalarni amalga oshirish davrida valyuta kurslarining o‘zgarishiga bog‘liq.

Shartnoma ishtirokchisi boshqaruv qarorining samaradorligi valyuta riskinisug‘urta qilish yoki sug‘urta qilmaslik shartnoma tuzilishi va uning ijro etilishidavri orasida valuta kurslarini istiqbol harakatlarining u tomondan oldindan to‘g‘ribaholani shiga bog‘liq. Demak, valuta kurslari o‘zgarishini bashorat qilish valuta riskini sug‘urta qilish va valuta chayqovi orasidagi tanlovning zaruriy shartidir.⁴

Valuta kurslarini bashorat qilish deganda, maxsus ilmiy tadqiqot uslublari yordamida kurslarning kelgusidagi o‘zgarishi haqida axborot olish tushuniladi. Amaliyotga valutalarning erkin suzadigan kurslari tizimining kirib kelishibilan ularning tebranishi masshtabli, oldindan bilib bo‘lmaydigan va muntazam ravishda tebra

⁴J.X.Ataniyazov, E.D.Alimardonov “Xalqaro moliya munosabatlari” 2019-y.

nadigan bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida valuta riskining yanada kuchayishiga olib keldi. Proqnozlar kelgusida ochiq valuta pozitsiyasining o'zgarish diapazonini aniqlash maqsadida ishlatiladi. Minimum va maksimum ko'rsatkichlari sug'urtalash xarajatlari bilan taqqoslanadigan ehtimolli valuta yo'qotishlarni hisoblash uchun ishlatiladi (to'la sug'urta qilish, su g'urta qilishdan bosh tortish, qisman sug'urta_qilish). Agar potensial valuta yo'qotishlarning miqdori qoplanish bo'yicha xarajatlar summasidan katta bo'lsa, to'la ochiq valuta pozitsiyasini yoki uning bir qismini sug'urtalash tavsiya etiladi. Qoplanish qiymati daromadlarga yoki zararlarga kursning ta'sir ehtimolidan yuqori bolsa, ferma sug'urta qilmasligi kerak.

Ba'zi mamlakatlarda banklarning uzun va qisqa valuta pozitsiyalarining miqdori valyuta qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Valyuta risklarini boshqarishning quyidagi usullari mavjud:

- Fyuchers kontrakti orqali xedjirlash;
- Forvard kontraktlari orqali xedjirlash;
- Valyuta opsiionlari orqali xedjirlash;
- Qisqa muddat ichida boshqarish, ya'ni korxonada daromad va xarajatlarini turli valyutalarga nisbatan sezuvchanlik darajasini aniqlash.

Fyuchers orqali xedjirlash-valyuta fyuchersini xarid qilish. Valyuta fyuchersini sotib olgan firma belgilangan muddatda, o'rnatilgan bahoda, kelishilgan valyutada va belgilangan miqdorda valyutani sotib olish huquqiga ega bo'ladi. Kelajakdagi xorijiy valyutadagi kreditorlik qarzlari bo'yicha to'lovlarni xedjirlash uchun firma yaqin kelajakda zarur bo'lgan valyuta uchun valyuta fyuchersini sotib olishi mumkin.

Bundan tashqari, forvard bitimi summasi bitim ishtirokchilari talabidan kelib chiqib tuziladi, ya'ni fyuchersga o'xshab standartlashtirilmaydi. Shunday bo'lsada, bu bitim ishtirokchilariga nisbatan qat'iy majburiyat yuklaydi.

Pul bozori xedjiri deyilganda, o'zgarish ehtimoli mavjud valyutada ma'lum pozitsiyani egallash tushuniladi. Bunda agar korxonada ma'lum muddatdan so'ng xorijiy valyutani to'lashi lozim bo'lsa va xorijiy valyuta qadri oshishi kuzatilayotgan bo'lsa, milliy valyutada bankdan kredit oladi va bu mablag'ni xorijiy valyutaga ayirboshlab, bankga belgilangan muddatga qadar depozitga joylashtiradi.

Valyuta opsiioni orqali xedjirlash nisbatan qimmat va o'z navbatida qulay hisoblanadi, u xairdorga majburiyat emas, balki huquq beradi. Agar opsiion kursi amadagi kursga nisbatan noqulay bo'lsa, unda xaridor opsiiondan foydalanmaydi va uni muddati o'tgandan so'ng bekor bo'lishiga qo'yib beradi va qulay bahoda bozordan zarur mablag'ni xarid qiladi.

Valyuta riskini boshqarish qiyin bo'lgan turi bu iqtisodiy riskdir. Chunki firma bozordagi konyunktura o'zgarishidan ham talofot ko'rishi mumkin. Kurs o'zgarishi hisobiga korxonada sotib oladigan xomashyo tovarlari va u sotadigan mahsulot kuchli

ta'sir ostida qoladi. Bunda korxonaning rejalashtirilgan tushumga erisholmay qolishi valyuta kursi iqtisodiy riskining yorqin salbiy oqibati hisoblanadi. Chunki bozor talab va taklif qonunini tartibga solish imkoniyatiga ega emas. Shu tufayli bunday riskni boshqarish usuli sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Korxonada operatsion faoliyatini restrukturizatsiya qilish. Bunda korxonada xarid qiladigan xomashyolar va sotadigan tovarlari bitimining bir-biriga nisbatan teskari korrelyatsiyada bo'lgan valyutalarda tuzilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.
2. Sotib olinadigan va sotiladigan tovarlar bitimi muddatini birxillashtirish. Bunda korxonada tovarlarini sotgan kuni xomashyo sotib oladi va valyuta kursi riskidan ma'lum ma'noda himoyalanaadi. Lekin korxonada tovarlarini qachon va qancha miqdorda sotilishini rejalashtira olmaydi.

Valyuta tavakkalchiligini kamaytirish uchun amerikalik sarmoyadorlar valyutalar va foiz stavkalari kuchli o'sib borayotgan mamlakatlarga sarmoya kiritish haqida o'ylashlari mumkin. Investorlar mamlakat inflyatsiyasini ko'rib chiqishlari kerak, ammo yuqori qarz odatda inflyatsiyadan oldin bo'ladi. Bu iqtisodiy ishonchni yo'qotishiga olib kelishi mumkin, bu esa mamlakat valyutasining tushishiga olib kelishi mumkin. Ko'tarilgan valyutalar qarzning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati pastligi bilan bog'liq.

Shveysariya franki mamlakatning barqaror siyosiy tizimi va qarzning yalpi ichki mahsulotga nisbati pastligi tufayli yaxshi qo'llab-quvvatlanishi mumkin bo'lgan valyutaga misoldir. Yangi Zelandiya dollari qishloq xo'jaligi va sut sanoatining barqaror eksporti tufayli barqaror bo'lib qolishi mumkin, bu esa foiz stavkalarining oshishi ehtimoliga hissa qo'shishi mumkin. Xorijiy qimmatli qog'ozlar ba'zan AQSh dollari zaiflashgan davrlarda oshib ketadi, bu odatda Qo'shma Shtatlardagi foiz stavkalari boshqa mamlakatlarga qaraganda pastroq bo'lganda sodir bo'ladi.

Obligatsiyalarga investitsiya qilish investorlarni valyuta xavfiga duchor qilishi mumkin, chunki ular valyuta o'zgarishidan kelib chiqadigan yo'qotishlarni qoplash uchun kichikroq daromadga ega. Xorijiy obligatsiyalar indeksidagi valyutaning o'zgarishi ko'pincha obligatsiyaning daromadlilikini ikki baravar oshiradi. AQSh dollaridagi obligatsiyalarga investitsiya qilish valyuta xavfining oldini olgan holda yanada barqaror daromad keltiradi. Shu bilan birga, global miqyosda investitsiya qilish valyuta riskini yumshatishning oqilona strategiyasidir, chunki geografik mintaqalar bo'yicha diversifikatsiyalangan portfel o'zgaruvchan valyutalar uchun to'siq bo'ladi. Investorlar o'z valyutalari AQSh dollariga bog'langan mamlakatlarga, masalan, Xitoyga sarmoya kiritish haqida o'ylashlari mumkin. Biroq, bu xavf-xatarsiz emas, chunki markaziy banklar investitsion daromadlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bog'lanish munosabatlarini o'zgartirishi mumkin.

Ko'pgina birja fondlari (ETF) va investitsiya fondlari odatda forex, opsiolar yoki fyucherslardan foydalangan holda xedjirlangan holda valyuta xavfini kamaytirish uchun mo'ljallangan. Darhaqiqat, AQSh dollarining ko'tarilishi Germaniya, Yaponiya va Xitoy kabi rivojlangan va rivojlanayotgan bozorlar uchun ko'plab valyuta himoyalangan fondlarni ko'rdi. Valyuta bilan himoyalangan fondlarning salbiy tomoni shundaki, ular daromadlarni kamaytirishi mumkin va valyuta bilan himoyalangan fondlarga qaraganda qimmatroqdir.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'shimiz mumkinki, valyuta risklarini boshqarishning zamonaviy usullari xalqaro moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Quyida valyuta risklarning xalqaro moliyaviy munosabatlarga o'zining ta'sirlari va ularni hal qilish yechimlarini ko'rishimiz mumkin:

1. Tovar savdosi:

Bu mamlakatning import va eksportiga tegishli. Umuman olganda, zaifroq valyuta importni qimmatroq qiladi, shu bilan birga chet ellik mijozlar uchun ularni arzonroq qilish orqali eksportni rag'batlantiradi. Zaif yoki kuchli valyuta vaqt o'tishi bilan mamlakatning savdo taqchilligiga yoki savdo profitsitiga hissa qo'shishi mumkin.

Misol uchun, siz Evropadagi xaridorga vidjetlarni har biri 10 dollardan sotadigan AQSh eksportchisiz, deylik. Ayirboshlash kursi $\text{€}1=1,25\text{\$}$. Shuning uchun, sizning evropalik xaridoringiz uchun har bir vidjet uchun 8 evro turadi.

Endi aytaylik, dollar zaiflashdi va kurs $\text{€}1=1,35$ dollarni tashkil qildi. Sizning xaridoringiz yaxshiroq narx bo'yicha muzokaralar olib borishni xohlaydi va siz har bir vidjet uchun kamida 10 dollarni tozalashda ularga tanaffus berishingiz mumkin. Agar siz yangi narxni har bir vidjet uchun 7,50 yevro qilib belgilasangiz ham, bu sizning xaridor nuqtai nazaridan 6,25% chegirma bo'lsa ham, sizning dollardagi narxingiz joriy kurs bo'yicha 10,13 dollarni tashkil qiladi. Zaif AQSh dollari eksport biznesingizga xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lib qolishiga imkon beradi.

Aksincha, kuchli valyuta eksport raqobatbardoshligini pasaytirishi va importni arzonlashtirishi mumkin, bu esa savdo taqchilligining yanada kengayishiga olib kelishi mumkin, natijada valyuta kursini o'z-o'zini tartibga solish mexanizmida zaiflashtirishi mumkin. Ammo bu sodir bo'lishidan oldin, eksportga qaram bo'lgan tarmoqlar haddan tashqari kuchli valyutadan zarar ko'rishi mumkin.

2. Kapital oqimlari.

Xorijiy kapital kuchli hukumatlarga, dinamik iqtisodiyotga va barqaror valyutaga ega mamlakatlarga oqib borishga moyildir. Xorijiy investorlarning kapitalini jalb qilish uchun davlatga nisbatan barqaror valyuta kerak. Aks holda, valyuta kursining qadrsizlanishi natijasida etkazilgan kursdagi yo'qotishlar xorijdagi investorlarni to'xtatib qo'yishi mumkin.

Капитал oqimining ikki turi mavjud: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, bunda xorijiy investorlar mavjud kompaniyalarning ulushini oladi yoki retsipient bozorida yangi ob'ektlarni quradi; va xorijiy investorlar oluvchi bozorda qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish va sotish uchun xorijiy portfel investitsiyalari. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar Xitoy va Hindiston kabi o'sib borayotgan iqtisodiyotlar uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi.

Hukumatlar odatda xorijiy investitsiyalar uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni afzal ko'radilar, chunki ikkinchisi issiq pul bo'lib, sharoitlar og'irlashganda mamlakatni tezda tark etishi mumkin. Ushbu kapital qo'zg'alishi har qanday salbiy hodisa, masalan, valyutaning qadrsizlanishi sabab bo'lishi mumkin.

3. Foiz stavkalari.

Yuqorida aytib o'tilganidek, valyuta kurslari ko'pchilik markaziy banklar uchun pul-kredit siyosatini belgilashda asosiy e'tibordir. 2012-yil sentabr oyida Kanada Banki gubernatori Mark Karni bank pul-kredit siyosatini belgilashda Kanada dollarining barqaror mustahkamligini hisobga olganini aytdi. Karnining aytishicha, Kanada dollarining mustahkamligi uning mamlakatining pul-kredit siyosati uzoq vaqtdan beri "o'ta qulay" bo'lishining sabablaridan biridir.

Kuchli milliy valyuta iqtisodga ta'sir qiladi va qattiqroq pul-kredit siyosati (ya'ni yuqori foiz stavkalari) bilan bir xil natijaga erishadi. Bundan tashqari, milliy valyuta allaqachon kuchli bo'lgan bir paytda pul-kredit siyosatining yanada qat'iylashtirilishi yuqori rentabellikdagi investitsiyalarni qidirayotgan xorijiy investorlarning issiq pullarini jalb qilish orqali muammoni yanada kuchaytirishi mumkin (bu milliy valyutani yanada mustahkamlaydi).

Foydalanilgan adabiytlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2017 yil —Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5177-sonli Farmoni. Ushbu Farmon —Xalq so'zil gazetasining 2017-yil 5-sentabrdagi 176 (6870)-sonida e'lon qilingan.
2. Mamatqulov X.M. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Ma'ruzalar kursi. Samarqand, 2006.
3. A.X.Ataniyazov, E.D.Alimardonov "Xalqaro moliya munosabatlari" 2019-y.
4. Brunnermeier, M. K. (2008). Bubbles, in S. N. Durlauf and L. E. Blume, eds. The New Palgrave Dictionary Economics, 2nd ed., Basingstoke: Palgrave Macmillan.
5. Fama E.F., French K.R. Common risk factors in the returns on stocks and bonds. Journal of Financial Economics. 1993;33(1):3-56. DOI: 10.1016/0304-405X(93)90023-5

6. Shvandar K. V., Glazunov A. V. Analysis of the use of national currencies in settlements on foreign trade transactions. Nauchno-issledovatel'skii Finansoviy institut. Finansoviy journal = Financial Research Institute. Financial Journal. 2017;(4):122-135. (In Russ.).
7. Yakovlev I.A., Shvandar K. V. The use of the floating exchange rate regime in countries with transitional economies. Nauchno-issledovatel'skii finansoviy institut. Finansoviy journal = Financial Research Institute. Financial Journal. 2019;(5):103-112.